



## BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

*i.f.n. Qodirov Bahodir*

*Termiz davlat universiteti*

*ORCID: 0009-0002-1637-718X*

*[bahodirkodirov07021968@gmail.com](mailto:bahodirkodirov07021968@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada bevosita va bilvosita soliqqa tortishning tarixiy shakllanishi jarayonlari, mustaqillikning o'tgan davrida soliq tizimini optimal tashkil etish yuzasidan amalga oshirilgan bevosita va bilvosita soliqqa tortish islohotlari va samarali natijalar haqidagi tadqiqot yakunlari umumlashtirib berilgan. Tadqiqotda bevosita va bilvosita soliqqa tortish jarayonlari, soliq to'lovchilar tarkibi, soliq solish ob'ekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash mexanizmlarini optimallashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimi, bevosita va bilvosita soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ekti, soliq bazasi, soliq mexanizmi, soliqlarni hisoblash, budjetga to'lash, bozor iqtisodiyoti.

## ПРОЦЕССЫ ОПТИМАЛЬНОГО ФОРМИРОВАНИЯ ПРЯМОГО И КОСВЕННОГО НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ

*к.э.н. Кадыров Баходир*

*Термезский государственный университет*

**Аннотация.** В статье обобщены результаты исследования процессов исторического формирования прямого и косвенного налогообложения, реформ прямого и косвенного налогообложения и эффективных результатов, реализованных в целях оптимальной организации налоговой системы за прошедший период независимости. В исследовании освещены процессы прямого и косвенного налогообложения, состав налогоплательщиков, объект налогообложения, налоговая база, налоговая ставка, вопросы оптимизации механизмов исчисления и уплаты налогов в бюджет.

**Ключевые слова:** система прямого и косвенного налогообложения, налогоплательщики прямых и косвенных налогов, объект налогообложения, налоговая база, налоговый механизм, исчисление налогов, уплата в бюджет, рыночная экономика.

## PROCESSES OF OPTIMAL FORMATION OF DIRECT AND INDIRECT TAXATION

*PhD Qodirov Bahodir*

*Termez State University*

**Abstract.** The article summarizes the results of research on the historical formation processes of direct and indirect taxation, direct and indirect taxation reforms and effective results implemented during the past period of independence to optimize the tax system. The study highlights the processes of direct and indirect taxation, the composition of taxpayers, the object of taxation, the tax base, the tax rate, and the optimization of tax calculation and payment mechanisms to the budget.

**Keywords:** the system of direct and indirect taxation, direct and indirect taxpayers, object of taxation, tax base, tax mechanism, calculation of taxes, payment to the budget, market economy.

### **Kirish.**

Bevosita va bilvosita soliqqa tortishni nazariyasi va amaliyotining tarixiy rivojlanish bosqichlarida davlat tuzilmasini shakllanishi bilan davlatni iqtisodiy ehtiyojlari uchun majburiy undirmalar ko'rinishidagi soliq munosabatlari yuzaga kelgan. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida davlatning rolini osib borishi, hukumatning boshqaruv tuzilmasi va vazifalarini kengayib borishiga va unga mutanosib holda bevosita va bilvosita soliq munosabatlarini ham rivojlanib borishiga sabab bo'ldi. Davlat bilan jamiyat o'rtasidagi moliyaviy aloqalarning bevosita va bilvosita soliqlar shakli rivojlanib borishi jarayonida ularning iqtisodiy mohiyatiga nisbatan baholash va soliq strategiyasini rejalashtirish yuzaga keldi. Shu o'rinda, bevosita va bilvosita soliqlarning evolyutsion shakllanishiga muvofiq holda optimal soliqqa tortish mexanizmlarini tashkil etilishi iqtisodiy voqiylikka ta'sir qiluvchi va tartibga soluvchi kuchga aylandi. Shu sabablarga ko'ra bevosita va bilvosita soliqqa tortishni optimal va samarali tashkil etish - soliqqa oid tadqiqotlarning predmeti va obyekti bo'lib qolaveradi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Bevosita va bilvosita soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotining shakllanishida klassik nazariya vakillarining roli muhim bo'lib, U.Petti, Adam Smit, D.Lokkom, David Rikardo va boshqalarni ushbu klassik nazariyaning namayondalari sifatida eslash joiz.

Soliq tizimini bevosita (to'g'ri) va bilvosita (egri) soliqlar tarzida tasniflashga birinchi marta angliyalik faylasuf D.Lokk (1693) tomonidan XYII asr oxirlarida asos solingan. D. Lokkning fikricha, soliqlar qanday tarzda, kimdan undirilmasin, baribir soliq og'irligi yer egasining zimmasiga tushadi, faqat yer egasining daromadi – haqiqiy sof daromad. Undan barcha fuqarolar manfaat oladi va soliqlarni to'laydi, deb xulosa chiqargan.

Rus olimi D.Chernikning (1996) fikricha, «bevosita soliq to'g'ridan-to'g'ri daromad oluvchi to'lanishi kerak bo'lgan shaxslardan olinadigan soliqlar, bilvosita soliqlar esa iste'molchilar to'laydigan soliqdir».

Rossiyalik olim Tatyana Mishenkoning (n.d) fikriga ko'ra, "bevosita soliqlar qimmatbaxo moddiy boyliklar egalari va xaridorlarini doimiy yo'ldosh bo'lib, bilvosita soliqlardan farqli jihati shundaki, u o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi". Fikrimizcha, bu nuqtai nazar bevosita soliqlarning ayrim jihatlarini namoyon etgan.

O'zbek olimlaridan Yangiboyev (2023) o'z tadqiqotlari bo'yicha yozgan ilmiy maqolasida «Bevosita soliqlar – yuridik yoki jismoniy shaxslarning foydasi yoki daromadiga, mol-mulkiga, tabiiy boyliklardan qazib olganiga, foydalanganiga, ishlab chiqarganiga, ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlariga belgilanib, soliq to'lovchining daromadidan yoki foydasidan bevosita davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lovidir» deb bevosita soliqlarga tavsif bergan. Mamlakatimizning yana bir olimi Ergashevning (2025) fikricha "Bilvosita soliqlar, asosan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, bojxona boji va boshqa turdagi istemolga yo'naltirilgan soliqlardan iborat bo'lib, ular aholining istemol darajasi va iqtisodiy faolligiga bevosita bog'liqdir. Aynan ushbu turdagi soliqlar davlatga iqtisodiy o'sishdan kelib chiqadigan daromadlarni samarali ravishda ko'p sarf qilinmasdan yig'ib olish imkonini beradi".

Umuman, tadqiqotchi olimlar tomonidan bevosita yoki bilvosita soliqqa tortish jarayonlari borasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, ammo bugungi iqtisodiyotning globalashuvi sharoitida bevosita va bilvosita soliqqa tortishni uzviy aloqadorligida optimal tashkil etish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada bevosita va bilvosita soliqlarning qiyosiy tahlili, analiz, sintez, tizimli va institutsional yondashuv, iqtisodiy va matematik tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Tahlillarning ko'rsatishicha, O'zbekistonda ham bevosita va bilvosita soliqqa tortish metodologiyasini optimal tashkil etish va takomillashtirish uchun rivojlangan xorijiy davlatlarning ko'p yillik tajribalarini organish, eng samarali metodlar va mexanizmlarni aniqlash hamda ularni soliq qonunchiligida tatbiq etish iqtisodiy jihatdan manfaatlidir. Shu bois, "O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini jahon savdo tashkilotining bitimlariga muvofiqlashtirish va Xorijiy investorlar kengashi majlisida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda" (O'zbekiston Respublikasi, 2025).

Mamlakatimizning dastlabki soliq qonunchilik hujjatlarida halqaro soliq qonunchilik mezonlari va tamoyillari shakllanmaganligi sababli endilikda biroz tezlashtirilgan soliq strategiyasi amalga oshirilayotgani ko'rinmoqda. Jadal amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tez o'zgarib borayotganligi tufayli bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimida doimiy va uzluksiz islohotlarni amalga oshirishga to'g'ri kelmoqda. Zero, O'zbekistonda amal qilayotgan soliq qonunchiligi ko'p jihatdan milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini nomoyon etish bilan birga, rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillik tajribalaridagi istiqbolli soliq tamoyillari va mexanizmlarini o'zida singdiradi. Shuning uchun, soliq solish tizimidagi yangilashuvlar davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli strategik loyihalariga muvofiq holda takomillashtirib boriladi.


Ko'pgina mamlakatlarda soliqlar tizimini samaradorligini baholashda yalpi ichki mahsulotdagi soliqlar ulushiga etibor berish shakllangan. Tahlillar mamlakatlarning soliqlarni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi har xil ekanligini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlar soliq siyosatida soliq yukini kamaytirish asosida tadbirkorlik rag'batlantiriladi. Umuman olganda, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda soliq yuki ancha kam bo'lib, samarali islohotlar uzluksiz davom etayotganligi sababli bu korsatkichlar yanada pasayib bormoqda.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, bevosita soliqlar yangi yaratilgan qiymatni qayta taqsimlashda ishtirok etib, soliq to'lovchi daromadi yoki foydasining bir qismini tashkil etsa, bilvosita soliqlar - baho shakllanayotganda tovar qiymati ustiga qo'shimcha qo'yilib, iste'molchi daromadining bir qismini davlat byudjetiga to'playdi. Bilvosita soliqlar - milliy daromadni qayta taqsimlasa, bevosita soliqlar - taqsimlangan daromadni qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Bunda bilvosita soliqlar asosan aholining daromadini qayta taqsimlaydi va muomaladagi tovar bilan himoyalangan ortiqcha pullarni yig'ishtirishda samara berib, pulning qadrsizlanishini kamaytirishda ijobiy o'rin tutadi. Bilvosita soliqlar nazariy jihatdan ayrim keng iste'mol tovarlariga belgilanishi natijasida yangi yaratilgan qiymatning aholi qo'lidagi bir qismini byudjetga to'playdi. Bevosita va bilvosita soliqqa tortishning nazariy va iqtisodiy mohiyati, o'ziga xos ta'sir omillari hisobga olingan holda soliqqa tortish darajalari va strategiyasi rejalashtiriladi hamda taktik tadbirlar amalga oshiriladi. Keltirilgan xulosalar amalda tatbiq etilishi natijasida ko'pgina rivojlangan davlatlarda bevosita va bilvosita soliqqa tortish samarali tashkil etilganligi bois, soliq yuki ancha pasaytirilganini ko'rish mumkin. Xususan, XXI-asrning boshida "dunyo tajribasida byudjetga to'lanadigan soliq to'lovlari yukining maqbul normalari allaqachon shakllangan bo'lib, YaIM.dagi soliq yuki AQSHda - 16.7%ni, Yaponiyada -17.4%ni, Germaniyada -23.8%ni, Buyuk britaniyada 23.9%ni, Janubiy koreyada -19%ni, Xitoyda -14.5%ni tashkil etgan" (Our World in Data (n.d.)). Mamlakatimizda mustaqillikni dastlabki yillarida soliq yukining yuqoriligi kuzatilgan bo'lsa, keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bevosita va bilvosita soliq yuki ancha pasaydi va soliq yukini yanada kamaytirish strategiyasi amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning YaIMdagi va budget daromadidagi bevosita va bilvosita soliqlar tushumining 2015-2024 yillardagi o'zgarish dinamikasi quyidagi 1-rasmda ifodalandi.

Keltirilgan 1-rasmdan ayon bo'ladiki, O'zbekistonda 2015-2024 yillarda YaIMning summasi ko'payish tendensiyasiga muvofiq o'sib borgan bo'lib, bu o'sishga mutanosib ravishda budget daromadlari va undagi soliq tushumlari, shu jumladan bevosita va bilvosita soliqlar tushumi ham o'sib borgan. Ammo, ushbu 2015-2024 yillar davomida soliq tushumlaridagi

bevosita soliqlarning o'sish darajasi bilvosita soliqlarning o'sish tendensiyasiga nisbatan ko'proqligi kuzatiladi. Bu bevosita va bilvosita soliqlar nisbatining bunday o'zgarish dinamikasi -mamlakatimizda samarali iqtisodiy islohotlar natijasida bevosita soliqqa tortiladigan milliy daromadlarning hajmini o'sib borayotganligidan va bevosita soliqqa tortiladigan bazaning kengayib borayotganligidan dalolatdir. Shuningdek, mamlakatimizda tovar va xizmatlarning yakuniy istemolchisi va bilvosita soliqlarning haqiqiy to'lovchisi bo'lgan istemolchi aholi qatlamining yashash darajasini yaxshilash maqsadida ularning daromadlarini bilvosita soliqlar vositasida taqsimlash salmog'i qisqarib borayotganligidan dalolat, deb hisoblaymiz.



**1-rasm. O'zbekiston respublikasi YAIM va budget daromadlarida bevosita va bilvosita soliqlar tarkibining o'zgarish dinamikasi**

*Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi va statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*

Mazkur tadqiqotimiz bo'yicha O'zbekistonda 1992-2025 yillarda yaratilgan YAIMdagi soliq tushumlarining ulushi, shu jumladan bevosita va bilvosita soliqlar salmogining darajasi quyida keltirilgan 1-jadvalda foiz hisobida umumlashtirildi.

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki 1993 yilida jami soliqlar yuki 30,6 %da bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda olib borilgan tizimli soliq islohotlari natijasida makrodarajadagi soliq yuki bosqichma-bosqich kamayib borganligi, shu jumladan 2025 yilda kelib mamlakatimizdagi jami soliq yuki 14,1 %ni tashkil etganligi, yani 1993 yilga nisbatan 16,5 punktga kamayganligi aniqlandi. Ya'ni mamlakatimizda makrodarajadagi jami soliq yuki o'tgan yillarda 51,6%ga kamaygan. Shuningdek, 1992 yilda mamlakatimizning davlat budgetida asosiy moliyaviy resursni jamg'aradigan soliq tushumlaridagi bevosita soliqqa tortish darajasi 32,6%, bilvosita soliqqa tortish darajasi 67,4 % bo'lgan holda 2025 yilga kelib jami soliq tushumlaridagi bevosita soliqqa tortish darajasi 62,4%, bilvosita soliqqa tortish darajasi 37,6 %ni tashkil etganligi, yani soliq tushumidagi bevosita soliqqa tortish ulushi 29,8 punktga o'sganligi, bilvosita soliqqa tortish ulushi 29,8 punktga pasayganligi aniqlandi.

## 1-jadval.

## Bevosita va bilvosita soliqlarning yalpi ichki mahsulot va byudjet daromadlarida tutgan o'ri.

Yillar	YAIMdagi jami soliq tushumlarini salmogi foizda	Bevosita soliqlar salmogi		Bilvosita soliqlar salmogi	
		YAIMga nisbatan foizda	Budjetdagi soliq tushumiga nisbatan foizda	YAIMga nisbatan foizda	Budjetdagi soliq tushumiga nisbatan foizda
1992 yil	26,5	8,7	32,6	17,8	67,4
1993 yil	30,6	14,1	46,1	16,5	53,9
1994 yil	22,6	9,4	41,6	13,2	58,4
1995 yil	28,0	13,3	48,0	14,7	52,0
2000 yil	26,8	10,9	44,9	15,9	55,1
2001 yil	23,7	10,2	41,7	13,5	58,3
2002 yil	22,8	9,2	37,9	13,6	62,1
2003 yil	23,1	9,1	39,4	14,0	60,6
2021 yil	16,8	10,0	59,3	6,8	40,7
2022 yil	16,0	8,9	55,3	7,1	44,7
2023 yil	15,3	8,4	54,8	6,9	45,2
2024 yil	14,8	8,7	59,0	6,1	41,0
2025 yil	14,1	8,8	62,4	5,3	37,6

**Manba:** Mif.uz. , open budjet.uz saytlaridagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tahlillardan ko'rinadiki, o'tgan yillar davomida amalga oshirilgan samarali iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimizda YalM barqaror o'sib borganligi va bu iqtisodiy o'sishga teskari mutanosiblikda jami soliqlar yuki pasayib borganligi va bu soliq yukining pasayishiga mutanosib holda bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimi optimallashtirib borgan. Ushbu bevosita va bilvosita soliqqa tortish salmogining samarali optimallashtirish natijasida mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishi taminlanganligi va investitsion jozibadorlik yuzaga kelganligi aniqlandi. Shunday bo'lsada, mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishiga mutanosib holda bevosita va bilvosita soliqqa tortish yukini pasaytirib, optimal soliqqa tortish metodologiyasini tashkil etish islohotlarini usliksiz ravishda davom ettirish maqsadga muvofiq.

### Xulosa va takliflar.

Bevosita va bilvosita soliqqa tortishni samarali tashkil etish va optimallashtirish uchun quyidagi soliq islohotlarini amalga oshirish lozim:

-mahsulot ishlab chiqaruvchi har bir soliq to'lovchi korxonalar uchun bevosita va bilvosita soliq yukini kamaytirish asosida ularning moliyaviy faoliyatini yaxshilash, korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'larni ko'paytirish maqsadida takror ishlab chiqarishni rag'batlantirishga xizmat qiladigan soliq mexanizmlarini yanada raqamlashtirish;

-foyda solig'ini hisoblashda chegirilmaydigan harajatlarni ixchamlashtirish, bunda, jarima va ustama penyalarni, yashillashtirish va obodonlashtirish, qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarini o'rnatish harajatlarini foyda solig'ini hisoblashda chegirilmaydigan harajatlar tarkibidan chiqarish;

- bozorda tovar bilan taminlanmagan pul massasi mablag'larni kamaytirish va inflatsiyani qisqartirishning samarali soliq vositalarini joriy etish ishlab chiqarishdan tashqari bo'sh mablag'larni soliq imtiyozlari asosida investitsion jozibadorlikni rag'batlantirish va kapitallashtirish.

Fikrimizcha, daromadlardan undiriladigan bevosita soliqqa tortishni kamaytirish asosida yuqorida qayd etilgan ijobiy jihatlar maqsad qilingan bo'lsada, lekin bilvosita soliqqa tortishning yuqoriligi sababli kutilayotgan natijalarga erishish qiyin bo'ladi.

#### **Adabiyotlar/ Лумепамыра/References:**

*Ergashev, I.O. (2025) Davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.*

*Our World in Data (n.d.) Taxes on income vs taxes on goods and services. Available at: <https://ourworldindata.org/grapher/taxes-on-income-vs-taxes-on-goods-and-services?tab=table>*

*Petty, W. (n.d.) A treatise of taxes and contributions. Available at: <https://www.gutenberg.org/ebooks/61588>*

*Yangiboev, X.A. (2023) 'Raqamli iqtisodiyot sharoitida bevosita va bilvosita soliqqa tortishni o'zaro bog'liqlik nazariyasi', Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, (6), pp. 169–175.*

*O'zbekiston Respublikasi (2025) O'RQ-1108-sonli qonun: Soliq va budget siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. 25 dekabr.*

*Черник, Д. (1996) Налоги. Москва: Финансы и статистика.*

*Мищенко, Т. (n.d.) 'Прямые налоги: что такое и какие бывают', Sovcombank.ru.*